



## SYMBOLIC AND ARTISTIC EXPRESSION OF REVOLUTIONARY AND SOCIAL RESISTANCE IDEAS THROUGH POETRY IN ASADULLO HABIB'S IJODIDA 'خط سرخ'

**Hilola Rahmatova**

*Graduate School of Iranian and Afghan Studies  
Master's Student, 2nd Year, Literature Studies (Dari)  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

**A.M. Mannonov**

*Professor at Tashkent State University of Oriental Studies  
Graduate School of Iranian and Afghan Studies, Doctor of Philology  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** resistance, freedom, symbol, artistic expression, revolution, Dari poetry, image, metaphor, socio-philosophical idea.

**Received:** 25.03.26

**Accepted:** 26.03.26

**Published:** 27.03.26

**Abstract:** This article analyzes the artistic expression of the ideas of resistance and freedom based on the example of Asadullo Habib's poem "خط سرخ". In the work, the poet reflects socio-political processes through symbolic imagery and artistically interprets the awakening of public consciousness, the struggle against oppression, and the aspiration for freedom. The study scientifically examines the genre characteristics of the poem, its symbolic system, and its artistic devices. The article also reveals the socio-philosophical content of the poem and the ways in which its revolutionary spirit is expressed.

## ASADULLO HABIB IJODIDA 'خط سرخ' SHE'RI ORQALI INQILOBIY VA IJTIMOYIY QARSHILIK G'OYALARINING RAMZIY VA BADIY IFODASI

**Hilola Rahmatova**

*Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi  
Adabiyotshunoslik (dariy) 2- kurs magistratura bosqichi talabasi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

**A.M. Mannonov**

*TDSHU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi professori  
Filologiya fanlari doktori  
Toshkent, O'zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**


---

**Kalit soʻzlar:** Qarshilik, ozodlik, ramz, badiiy ifoda, inqilob, dariy sheʼriyati, obraz, metafora, ijtimoiy-falsafiy gʻoya.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Asadullo Habib ning «خط سرخ» sheʼri misolida qarshilik va ozodlik gʻoyalarining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Asarda shoir tomonidan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ramziy obrazlar orqali yoritilib, xalq ongining uygʻonishi, zulmga qarshi kurash va erkinlikka intilish masalalari badiiy talqin etiladi. Tadqiqot jarayonida sheʼrning janr xususiyatlari, ramziy tizimi hamda badiiy vositalari ilmiy jihatdan oʻrganiladi. Maqolada, shuningdek, sheʼrning ijtimoiy-falsafiy mazmuni va undagi inqilobiy ruhning ifodalanish usullari ochib beriladi.

---

**СИМВОЛИЧЕСКОЕ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ИДЕЙ  
РЕВОЛЮЦИОННОГО И СОЦИАЛЬНОГО СОПРОТИВЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ПОЭЗИЮ В  
IJODIDA ‘خط سرخ’ “АСАДУЛЛО ХАБИБА”**

**Хилола Рахматова**

*Высшая школа иранистики и афганистики*

*Студентка магистратуры, 2 курс, литературоведение (дари)*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

**А.М. Маннонов**

*Профессор Ташкентского государственного университета востоковедения*

*Высшая школа иранистики и афганистики, доктор филологических наук*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**


---

**Ключевые слова:** Сопротивление, свобода, символ, художественное выражение, революция, дарийская поэзия, образ, метафора, социально-философская идея.

**Аннотация:** В данной статье анализируется художественное выражение идей сопротивления и свободы на примере стихотворения Асадулло Хабиба «خط سرخ». В произведении поэт посредством символических образов освещает социально-политические процессы, художественно интерпретируя вопросы пробуждения народного сознания, борьбы против угнетения и стремления к свободе. В ходе исследования научно рассматриваются жанровые особенности стихотворения, его символическая система и художественные средства. В статье также раскрываются социально-философское содержание произведения и способы выражения революционного духа в нем.

---

*“Adabiyot, sanʼat va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”*

**Kirish.** Zamonaviy dariy she'riyatida ijtimoiy-siyosiy mavzular, xususan, xalqning ozodlikka intilishi, zulmga qarshi kurashi va inson erkinligi masalalari muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda she'riyat nafaqat estetik zavq manbai, balki jamiyatdagi muammolarni yorituvchi va inson ongiga ta'sir etuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mana shunday bir davrda ijod etgan serqirra ijodkorlar orasida, o'zining boy va rang-barang ijodiy merosi bilan ajralib turgan, zamondoshlari orasida hurmat qozongan, keyingi avlodlar uchun ham ilhom manbai bo'lgan ijodkor — Asadullo Habibdir. Uning asarlari nafaqat xalqning kundalik hayoti va muammolarini aks ettiradi, balki insoniy, ma'naviy va estetik qadriyatlarni chuqur tahlil qiluvchi vosita sifatida ham ahamiyatlidir.

Asadullo Habib nafaqat yozuvchi, bedilshunos olim, maorifning yetakchi vakili edi, balki yetuk shoir ham edi. Shoirning o'zi ta'kidlashi o'yicha she'rlarining asosiy mavzusi ijtimoiy hayot, jamiyatning quyi qatlamlarining ayanchli hayoti, yolg'on e'tiqodlar, qoloqlikka sabab bo'lgan mantiqsiz odatlarni tanqid qilishga qaratilgan. Asadullo Habib qalami o'tkir yozuvchi bo'lishi bilan birga shoir ham edi. Uning she'rlari uslubi asosan yangi she'r uslubida yaratilgan.

Asadullo Habibning «خط سرخ» "Qizil chiziq" she'ri qarshilik, ozodlik va inqilob g'oyalarini chuqur ramziy shaklda ifodalashi bilan ajralib turadi. She'rda shoir jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi chiqish, inson erkinligini himoya qilish hamda xalqning uyg'onish jarayonini badiiy obrazlar orqali tasvirlaydi.

Asadullo Habibning she'riy to'plamlari turli mavzu va ramzlarni hamda badiiyligi turlicha masalan, uning ("خط سرخ") "Qizil chiziq" she'riy to'plamidagi she'rlarining mavzusi ijtimoiy maishiy va lirik bo'lib, asosan yangi she'r uslubida yozilgan, shu bilan birga an'anaviy she'r uslubida yozilgan she'rlari ham topiladi. Aynan biz tahlilga olgan she'ri ham shu to'plamdan ham joy ham nom olgan. Asadullo Habib she'riyati mavzular doirasi ancha keng bo'lib, u o'z fikrlarini ramzlar orqali beradi.

"Qizil chiziq" she'rida ruhiy tasvir ichki qarshilikdan ijtimoiy ongga o'tish jarayoni orqali ochiladi. Shoir inqilobni tashqi hodisa emas, balki insonning ichki "yo'q" deyish qobiliyatidan tug'ilgan ruhiy holat sifatida talqin qiladi. "Qizil chiziq" obrazi qon, rad etish va ma'naviy chegarani birlashtirgan markaziy ramzdir. Ushbu she'ri shu nomli to'plamiga kiritilgan she'rlari sirasidan bo'lib, hajmi nuqtai nazaridan yirik she'rlari qatorida turadi. Ushbu she'ri 1978- yil Kobulda yozilgan bo'lib, Afg'oniston ijtimoiy siyosiy hayotida inqilob yuzaga kelgan bir davrda yozilgan.

Asadullo Habibning خط سرخ she'ri shakliy jihatdan zamonaviy dariy she'riyatiga xos bo'lgan erkin she'r (شعر آزاد) namunasi hisoblanadi. Mazkur she'r an'anaviy aruz tizimi va qat'iy qofiya talablariga bo'ysunmay, erkin poetik qurilish asosida yaratilgan. Misralarning turli uzunlikda kelishi,

qofiyaning majburiy emasligi hamda ritmning semantik va sintaktik parallelizm orqali yuzaga kelishi uning modernistik poetika asosida yozilganini ko'rsatadi.

Masalan,

“انقلاب از چه درخشید؟ / ز دندان ابر، / ز صغیر باران”

“Inqilob nimadan chaqnadi?”

Bulutning tishlaridan,

Yomg'irning hushtak-sadosidan.”

misralarida poetik tuzilish erkin shaklda rivojlanadi, qofiya emas, balki obrazli ifoda va ichki ohang asosiy ritmik vosita vazifasini bajaradi.

Shuningdek,

“انقلاب از دل مردم برخاست، / انقلاب از دل آزردۀ مردم برخاست؛”

“Inqilob xalq yuragidan bosh ko'tardi,

Inqilob jarohatlangan xalq yuragidan bosh ko'tardi.”

misralarining takrorlanishi she'rning ritmik yaxlitligini ta'minlab, uning g'oyaviy markazini kuchaytiradi. Bu esa she'rning shaklan erkin she'r ekanini hamda zamonaviy dariy modernistik she'riyatiga mansubligini tasdiqlaydi.

She'r janr jihatdan ijtimoiy-falsafiy lirik xarakterga ega bo'lib, unda shoir inqilob mohiyatini falsafiy umumlashmalar orqali talqin qiladi. Asarda jamiyatdagi zulm va adolatsizlik holatlari ramziy obrazlar orqali ochib berilib, inson erkinligi va xalq uyg'onishi g'oyalari markaziy o'rin egallaydi.

Xususan,

“انقلاب از دل مردم برخاست”

“Inqilob xalq yuragidan bosh ko'tardi.”

misrasi inqilobning tashqi kuch emas, balki xalqning ichki ehtiyoji va ongli harakati mahsuli ekanini anglatadi. Bu esa she'rda xalq va tarixiy jarayonlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni falsafiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Uslubiy jihatdan she'r ramziy (نمادین) va metaforik xarakterga ega bo'lib, unda badiiy obrazlar tizimi muhim g'oyaviy yukni o'z zimmasiga oladi. She'rning markaziy ramzi hisoblangan “خط سرخ” (qizil chiziq) obrazi inqilob, kurash va tarixiy burilish timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ramz orqali shoir zulmga qarshi kurash va ozodlik sari intilish g'oyasini ifodalaydi.

«همه‌اش یک خط سرخ، همه‌اش یک خط «نه»»

“Hammasi bir qizil chiziq, hammasi yagona 'yo'q' chizig'i.”

misralari esa ushbu ramzning mazmunini yanada chuqurlashtirib, uni adolatsizlikka qarshi qat'iy rad etish va yangi tarixiy bosqich sari o'tish ramziga aylantiradi. Bundan tashqari, “خون حق” obrazi ozodlik yo'lidagi qurbonlikni, “کبوتر” obrazi erkinlik va najotni, “کاوہ” timsoli esa xalqning tarixiy qarshilik ruhini ifodalaydi. Bu obrazlar tizimi she'rning ramziy-falsafiy qatlamini boyitadi.

Mazmuniy jihatdan she'r inqilobiy-ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lib, unda xalqning zulmga qarshi kurashi, uyg'onishi va erkinlik sari harakati badiiy tasvirlangan. She'rda inqilob tashqi hodisa emas, balki tarixiy zarurat va xalqning ichki ongli harakati natijasi sifatida talqin qilinadi. Bu esa shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini aks ettirib, asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi.

She'rning badiiyati metafora, ramz, takror va epitet kabi poetik vositalarning faol qo'llanilishi orqali namoyon bo'ladi. Masalan,

“خونِ حق بود که چون آیتِ بهبود و شبابِ جاری شد”

“Bu haqning qoni edi — sog'ayish va yoshlik oyati singari oqib bordi.”

misrasida haqiqat qoni obrazining qo'llanilishi ozodlik uchun kurash va yangilanish g'oyasini metaforik tarzda ifodalaydi.

“خط سرخ”

“Qizil chiziq”

ramzi esa she'rning asosiy g'oyaviy markazini tashkil etadi. Takror (anafora) vositasining qo'llanilishi she'rning ritmik tuzilishini mustahkamlash bilan birga, uning semantik ta'sirchanligini oshiradi. Shuningdek,

“تن ترس تب‌آلود زمین”

“Yerning qo'rquvdan titroq, isitma ichidagi tanasi”

kabi epitetlar orqali poetik tasvirning emotsional ta'siri kuchaytirilgan.

Umuman olganda, Asadullo Habibning “خط سرخ” she'ri shakliy jihatdan erkin she'r, janr jihatdan ijtimoiy-falsafiy lirik asar, uslubiy jihatdan esa ramziy-metaforik xarakterga ega bo'lgan zamonaviy dariy she'riyatining muhim namunasi hisoblanadi. Unda zamonaviy poetik ifoda vositalari orqali inqilob, ozodlik, inson erkinligi va xalq uyg'onishi g'oyalari chuqur badiiy talqin etilgan.

She'r boshida inqilob tashqi hodisa sifatida emas, balki ichki kuch sifatida tasvirlanadi:

انقلاب از دل مردم برخاست

انقلاب از دل آزردۀ مردم برخاست

“Inqilob xalq yuragidan bosh ko'tardi,

Inqilob jarohatlangan xalq yuragidan bosh ko'tardi.”

Bu yerda inqilob:

“دیل” (qalb),

“مغز آگاه” (ong),

“بازوی ستبر” (kuchli qo'l)

dan kelib chiqadi.

Inqilob — bu siyosiy voqea emas, balki:

- uzoq yillik og'riq,

- tahqir,
- adolatsizlik,
- ochlik,
- qo‘rquv

natijasida to‘plangan kollektiv ruhiy portlash.

Eng muhim obraz:

همه اش يك خط سرخ  
«همه اش يك خط نی»

“Hammasi bir qizil chiziq, hammasi yagona ‘yo‘q’ chizig‘i.”

“Qizil chiziq” obrazi qon, rad etish va ma‘naviy chegarani birlashtirgan markaziy ramzdir.

Umuman olganda bu — inson ruhining so‘nggi sabr chizig‘i.

**Xulosa:** Maqolada Asadullo Habibning «خط سرخ» (qizil chiziq) she‘ri misolida qarshilik va ozodlik g‘oyalarining badiiy ifodasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, she‘r shakliy jihatdan zamonaviy dariy erkin she‘rga xos bo‘lib, an‘anaviy vazn va qofiya talablaridan voz kechilgan, ritm va ohang semantik takrorlar va sintaktik parallelizm orqali yaratilgan. Janr jihatdan she‘r ijtimoiy-falsafiy lirik xarakterga ega bo‘lib, unda shoir xalq uyg‘onishi, zulmga qarshi kurash va erkinlikka intilish g‘oyalarini ramziy va metaforik obrazlar orqali ifodalaydi.

She‘rning markaziy ramzi — «خط سرخ» (qizil chiziq) — zulmga qarshi qat‘iy rad etish va inqilobiy burilish timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, کاهه, کبوتر, خون حق kabi obrazlar xalq kurashi, ozodlik va tarixiy qarshilik g‘oyalarini yanada boyitadi. Maqolada shoirning badiiy vositalardan foydalangan holda ijtimoiy-falsafiy mazmunni chuqur badiiy talqin qilgani ko‘rsatildi.

Umuman olganda, Asadullo Habibning «خط سرخ» (qizil chiziq) she‘ri zamonaviy dariy she‘riyatining yorqin namunasi bo‘lib, inqilob, ozodlik va xalq uyg‘onishi g‘oyalarini shakl, uslub va mazmun jihatdan mukammal badiiy ifoda etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. урбонова М. Асадулло Ҳабиб: ҳаёт ва ижод. — Душанбе: Ирфон, 2012. — 180 с.
2. رستگار، علی شیر. طلیعه داران تجدد شعر دری در افغانستان (۱۲۸۰-۱۳۴۰). کابل، ۱۳۹۷، ص. ۲۲.
4. صفا، ذبیح الله. تاریخ ادبیات در افغانستان. کابل: انتشارات، ۱۳۸۷، صص ۳۰۲-۳۰۵.
5. حبیب، اسدالله. خط سرخ. — کابل: اتحادیه نویسندگان افغانستان، ۱۳۶۲ هـ.ش. — ص. ۱۰-۴۵.
6. <http://m.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>